Sharqshunoslikning yangi istiqbollari

Moziyga qaytib ish ko’rmoq xayrlidir. 1918-yilda O’rta Osiyoda Turkiston sharqshunoslik instituti tashkil topdi. Aynan shu davrdan boshlab sharqshunoslik sohasining ilk o’rganish davri boshlandi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bu institut Toshkent shahrida joylashgan edi. Uning ilk rektori M.S. Andreyev bo’lgan. 1920-yillarga kelib institutda 210 ta talaba, 5 ta professor va 21 ta o’qituvchi ishlagan. Hozirgi kunga kelib, shu Institut negizida tashkil qilingan Toshkent davlat sharqshunoslik institutida 3500 ta talaba, 26 ta kafedra, 40 xorijiy tadqiqotchilar va 300 dan ortiq professor-o’qituvchilar bor.

1991-yili Toshkent davlat universitetining sharqshunoslik fakultetidan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti ajralib chiqdi. 100 yildan ortiq moddiy va ma’naviy boyligimizni tadqiq qilishni sharq tillari – arab va fors zabonsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. O’zbekiston madaniyatlar chorrahasida joylashgan hudud. Aynan bu mintaqada Islom ilmi, madaniyati va sa’natiga hissa qo’shgan allomalarning ulkan merosi saqlanmoqda. Ajdodlar merosini saqlab, tadqiq qilib, uni o’rgatib keyingi avlodga yetkazish sharqshunoslarning asosiy vazifalaridan biridir.

Yashnabod tumanida tarix fanlariga ixtisoslashtirilgan 216-maktabda o’quvchilik yillarimda yurtimning tarixini chuqur tadqiq qilmoqchi bo’lsam albatta birlamchi manbalar qo’lyozmalarni o’rganishim kerakligini bilganman. Buning uchun esa, sharq tillaridan arab, fors tillarini va tarixni birgalikda o’rgatadigan dargoh almametirimning Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasiga o’qishga kirganman. Arab, fors tillari bilan birgalikda ingliz va frantsuz tillarini ham o’rganganman. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti bakalavr va magistratura bosqichlarini tugatib, O’zR FA Tarix institutiga, keyinchalik ajdodlarimizning ulkan xazinasi saqlanadigan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti aspirantura bo’limiga kirdim. Qo’lyozmalar dunyosiga kirish uchun, bir manbani ilmiy muomalaga kiritishdan boshlaganman. Xorazm tarixiga oid Muhammadrizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asari aynan shu kalit edi. Bir qo’lyozmani tadqiq qilish orqali 10 dan ziyod xorijiy mamlakatlarda ilmiy stajirovka va konferensiyalarda qatnashdim. Bu ham sharqshunos-manbashunos sifatida ilmiy ishimni chuqur tadqiq qilish uchun professonal yondashuv edi.

Prezidentimiz va davlatimizning yoshlarga, xususan yosh sharqshunoslarga bo’lgan e’tiborlarini yana bir yaqqol namunasi 16 yildan beri o’tkazilayotgan akademik Ubaydulla Karimov nomli yosh sharqshunoslar

konferentsiyasi 2020-yilda xalqaro konferensiyaga aylantirildi. “Buxoro shahri – Islom olami madaniyati poytaxti” xalqaro forum doirasida “O’zbekistonda islom madaniyati, sa’nati va tarixining yangi istiqbollari” nomli ushbu konferentsiyaga xorijiy va mahalliy yosh olimlarning ilmiy maqolalari qabul qilindi. Bunga o’xshash konferensiyalar global ilmiy jarayonlarda muhim etap bo’lib, yurtimizning kadrlar siyosatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Aynan shu yo’nalishni menga o’rgatgan ilmiy dargohim bugun Muhtaram Prezidentimiz tomonidan universitetga aylantirildi. Bu men kabi sharqshunos olimlar oldiga yuksak marralarni zabt qilish vazifasini qo’ymoqda. Boyligimiz o’zimizda, imkoniyatlar yetarli. Boy va betakror tariximiz, cheksiz bilim olishga sharoitimiz bor. Ming yillik tarixni o’zida yashirgan arabografik yozuv, sharq tillari va ilmiy metodlarni o’rgangan holda tariximizni o’zimiz haqqoniy yozaylik!

Hilola Nazirova,

O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti

Yosh olimlar kengashi raisi.